



## ATTENTION TO SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN AND TUTORING ACTIVITY

**Nuriddin N. Rakhmatov**

*Lecturer*

*Bukhara State Medical Institute*

*Bukhara, Uzbekistan*

*E-mail: [rakhmatov.nuriddin.83@mail.ru](mailto:rakhmatov.nuriddin.83@mail.ru)*

### **ABOUT ARTICLE**

**Key words:** spirituality and enlightenment, education, upbringing, intellect, value, tutor, Third Renaissance, positivism

**Received:** 28.06.22

**Accepted:** 30.06.22

**Published:** 02.07.22

**Abstract:** Today, the reforms and updates in the field of education and training in the Republic of Uzbekistan are aimed at fundamentally reforming this system and bringing it to the level of the educational system of the developed countries of the world. Also, training of perfect individuals with modern knowledge is provided as part of the education along with education.

Based on this, this article, along with the above issues, considers the issues of the state's improvement of moral and educational measures in educating young students and tutoring activities in ensuring the effectiveness of the educational system.

## **O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHGA E'TIBOR VA TYUTORLIK FAOLIYATI**

**Nuriddin N. Raxmatov**

*o'qituvchi*

*Buxoro davlat tibbiyot instituti*

*Buxoro, O'zbekiston*

*E-mail: [rakhmatov.nuriddin.83@mail.ru](mailto:rakhmatov.nuriddin.83@mail.ru)*

### **MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat va ma'rifat, ta'lim, tarbiya, intellekt, qadriyat, tyutor, Uchinchi uyg'onish davri, pozitivizm

**Annotatsiya:** Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim va tarbiya sohasida olib borilayotgan islohotlar va yangilanishlar mazkur tizimni tubdan isloh qilib, dunyoning rivojlangan mamlakatlarining ta'lim tizimi darajasiga olib chiqishga qaratilgan.

Shuningdek, ta'lim bilan birga tarbiyaning olib borilayotganligi zamirida zamonaviy bilimga ega bo'lgan komil shaxslarni tarbiyalash nazarda tutilgan.

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolada yuqoridagi masalalar bilan birga talaba yoshlarni tarbiyalashda davlat tomonidan ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlarni takomillashtirish va tarbiyaviy tizim samaradorligini ta'minlashda tyutorlik faoliyatini to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqiladi.

## ВНИМАНИЕ К ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМУ ВОСПИТАНИЮ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ УЗБЕКИСТАНА И ТҮТОРСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

**Нуридин Н. Рахматов**

*преподаватель*

*Бухарский государственный медицинский институт*

*Бухара, Узбекистан*

*E-mail: [rakhmatov.nuriddin.83@mail.ru](mailto:rakhmatov.nuriddin.83@mail.ru)*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** духовность и просвещение, образование, воспитание, интеллект, ценность, воспитатель, Третье Возрождение, позитивизм

**Аннотация:** Сегодня реформы и обновления в сфере образования и обучения в Республике Узбекистан направлены на коренное реформирование этой системы и доведение ее до уровня образовательной системы развитых стран мира. Также в рамках образования наряду с образованием предусмотрена подготовка совершенных личностей с современными знаниями.

Исходя из этого, в данной статье наряду с вышеперечисленными вопросами рассматриваются вопросы государственного совершенствования нравственно-воспитательных мер в воспитании учащейся молодежи и тьюторской деятельности в обеспечении эффективности системы образования.

### KIRISH

Bugungi davrda ta'lim va tarbiyaning maskani oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish hamda professor-o'qituvchilar mehnati samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini ta'minlash eng asosiy masalalardan biri hisoblanib, jamiyatdagi oliy ta'lim tizimida uchrayotgan ko'plab muammolarning echimini topishda bevosita bog'liq. Kadrlarning salohiyati va ularning raqobatbardoshligi, zamonaviy talablar asosida mehnat faoliyatida ishlab davlat va jamiyat uchun o'zining hissasini qo'sha olishi ularning ustozlaridan olgan ta'lim va tarbiyasi hamda amaliy ko'nikmalarining o'zlashtirishlariga ham bevosita qaraladi.

## ASOSIY QISM

Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimini rivojlantirib, innovatsion ishlanmalar va yangi texnologiyalarni yaratmoqdalar, intellekt uchun sarmoyalar ajratmoqdalar. Natijada ularning ijtimoiy va iqtisodiy hayotlari yaxshilanmoqda, yanada rivojlanmoqda. Shuningdek, intellektual salohiyatlarining natijalarini avval o‘zlarida qo‘llab, keyin boshqa mamlakatlarga sotmoqdalar, foyda va manfaat topmoqdalar. Ammo ta’limda ilgarilab ketgan mamlakatlarda tarbiyaviy jarayonlarga e’tiborning kamligi yoki tarbiyaviy jarayonlarda erkinlik, axloq va odobning insoniyat tarbiyasi jarayonidan chetga chiqib qolayotgani bugungi kunda uchrayotgan dolzarb muammolardan bo‘lib sanalmoqda. Ayniqsa, intellektual salohiyat egalari olimlarning faoliyatidan axloqning chetga chiqishi yoki ikkinchi darajaliga aylanishi, moddiy manfaat ketidan quvish, shon-shuhrat va obro‘-e’tiborga ega bo‘lishga intilish, ilmni ortidan hashamatli xayot tarziga intilish natijasida jahonda turli katta-katta ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy global muammolar vujudga kelmoqda. Bularga misol sifatida ijtimoiy tengsizlik, ekologiya muammmolari, turli buzg‘unchi g‘oyalar asosida urush va noroziliklarni keltirib chiqarish, tabiiy va inson resurslarini qo‘lga kiritish uchun turli iqtisodiy, siyosiy va g‘oyaviy-psixologik hamda madaniy kurashlarni keltirishimiz mumkin. Bularni keltirib chiqarayotganlar kimlar degan savol tug‘ilishi mumkin. Albatta, buni javobi bitta, bular ilm, ta’lim va tarbiyani ustozidan olib, axloq va ma’naviyatdan uzoqlashgan, ilmning ma’naviy-axloqiy jihatlari va ijtimoiy oqibatlaridan uzoqlashgan insonlardir. Chunki odamzod ta’lim va tarbiya orqali buyuk olim bo‘lib etishishi mumkin, ammo undan axloq ko‘tarilsa, u insoniyatga juda katta va uzoq muddatli xavotir, zararlarni keltirishi mumkin. Ikkinchi jahon urushidan keyin AQShda atom bombasini ixtiro qilishda qatnashgan olim Albert Enshteyndan jurnalistlar butun jahonning kuchli mamlakatlari ushbu yadroviy quroq bilan qurollanishga kuch sarflayotgani, bir kun kelib ular bir-biri bilan urushlar olib borishi mumkinligi, insoniyatning hayotini bunday xavfli quroldan nima qutqaradi deb savol berishganida olim ularga hokimiyatga yuksak axloqli insonlar kelsagina, ular hamkorlikda dunyonи qutqarishi mumkinligini e’tirof etib o‘tadi. Ya’ni Enshteyn yadroviy quroqni yaratishda ishtirok etib, uning qanchalar katta ijtimoiy zarar keltirishini ko‘z oldidan o‘tkazib, endi uni faqat ahloqli hokimiyat egalari qo‘liga topshirish kerakligini anglab etadi.

Axloq bu inson ma’naviyatning bir tarkibiy qismidir. Ma’naviyat esa, ta’lim va tarbiya asosida shakllanadi, rivojlanadi va insonni kamolotga etkazadi, uning ichki va tashqi dunyosini shakllantiradi. Fozil odamlar shahrini orzu qilgan Abu Nasr Forobiy «Daraxtning etukligi uning mevasi bilan bo‘lganidek, insonning barcha xislatlari ham ahloqiy tarbiya bilan yakunlanadi» deb, axloqiy tarbiyaning inson hayoti uchun katta ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etadi. Antik davr olimlari va Sharq davri mutafakkirlari ijtimoiy qarashlarining mazmunida inson axloqi va

ma’naviy dunyosini shakllantirish, komillikka erishish yo’llari va farovon hayotni qurishning asosida faqatgina ikkita narsa ta’lim va tarbiya yotganini bilishimiz mumkin. Buyuk ma’rifatparvar jadid Maxmudxo‘ja Behbudiy ham dunyoda ustun bo‘lish uchun zamonaviy ta’lim va tarbiyaga ahamiyat berish kerakligi, ma’rifatparvar Abdulla Avloniyining “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deya tarbiya masalasining dolzarbligini e’tirof etishi, tarbiya masalalariga e’tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko‘ngilsizliklar ham, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlardan ogohlantiradi. Shuningdek, islom olamining buyuk olimi Imom G‘azzoliy “Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o‘rgatilsa, shu bilan o‘sadi va dunyo-yu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, oxir-oqibat halok bo‘ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo‘lganlarning gardaniga tushadi” deb, ta’lim va tarbiyaning avvalo, oilada ota-onaga tushadigan mas’uliyati va keyin muallim va ustozlarga tushadigan mas’uliyati naqadar katta ekanligini va bunda ota-on va ustozlar birdek javobgar ekanliklarini aytib o‘tadi.

O‘zbekiston turli millatli mamlakat. 1991 yilda Davlat mustaqillagini qo‘lga kiritganidan keyin suveren respublika sifatida O‘zbekiston iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy-madaniy hayotni qayta tiklash va uni rivojlantirishning o‘ziga xos yo‘lini ishlab chiqdi va uni bosqichma bosqich tadbiq etdi. Ayniqsa, ta’lim-tarbiya va ma’naviy-madaniy yo‘nalishlarda milliy qadriyatlarni saqlagan holda va bag‘rikenglikni ta’milagan holda islohotlar olib borildi. Mazkur islohotlarda esa quyidagi yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratildi:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini asrab-avaylash va rivojlantirish;
- Inson o‘z imkoniyatlarini erkin amalga oshirishi mumkin;
- Vatanparvarlik.

O‘zbekistonda o‘ziga xos milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ta’lim tizimi yaratilgan. Ta’lim tizimini tubdan yangilash va uzlusizligini ta’minlash maqsadida bugungi kungacha uch marta “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar (1992 y., 1997 y., 2020 y.), “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997 y.), O‘zbekiston Prezidenti qaror va farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi ta’limga qadriyat sifatida katta e’tibor berib, mamlakatning har bir fuqarosiga bepul umumiyl o‘rta ta’lim olishni kafolatlaydi. Yuqoridaq hujjatlar

ta’lim tizimining tayanchi bo‘lib, bugungi kungacha O‘zbekistonda ta’limning uzluksizligini tizimli ta’minlab beradi.

Milliy dasturda taqdim etilgan uzluksiz ta’lim strategiyasi zamonaviy bilimlarga ega, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, mustaqil fikrlash va oqilona qaror qabul qila oladigan barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan. O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi xorijiy tajribani chuqur va keng ko‘lamda o‘rganish va mavjud ta’lim tizimini tanqidiy tahlil qilish, rivojlanishning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyati davlat ta’lim standartlari, mакtabgacha, boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ta’lim dasturlari uzluksizligi asosida ta’minlanadi. Ta’lim tizimi maktabdan tashqari ta’limni ham nazarda tutadi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiradi, unda Yoshlar siyosati, ta’lim, madaniyat va sport masalalari kompleksi mavjud bo‘lib, u, xususan, uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tizimli o‘rganishni tashkil etadi.

2020 yil 29 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Biz o‘z oldimizga buyuk maqsad – mamlakatimizda Uchinchi Uyg‘onish davri poydevorini qo‘yishni belgilab oldik. Бы эса, мamlakatimizda ta’lim tizimining ahamiyati va modernizatsiyasini ko‘rsatadi. Ta’lim va tarbiya, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish, yangi O‘zbekiston qurilishida ta’limni tizimli yo‘lga qo‘yish, uzluksiz ta’lim tizimini bolalar bog‘chasi, maktab, o‘rta maxsus ta’lim, kasb-hunar ta’limi tizimi (kasb-hunar mакtablari, kollejlar va texnikumlar), oliy ta’lim, magistratura, doktorantura, aspirantura va kasbiy ta’lim, malaka oshirish kabi tizimlarni rivojlantirishni o‘z ichiga olgan hozirgi islohotlarning mazmun-mohiyati Uchinchi Uyg‘onish davri asoslarini rivojlantirish va jahon andozalariga moslashtirish borasidagi mashaqqatli mehnatdir. [1]

Hozirgi kunda o‘qituvchining umumiyligi yuklama soatlari quyidgi kategoriyalarga bo‘lingan:

1. O‘quv-uslubiy ishlar;
2. Ilmiy-tadqiqot ishlari;
3. “Ustoz va shogird” yo‘nalishida ishlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi 2909-sonli, 2017 yil 5 maydagagi 2956-sonli, 2017 yil 27 iyuldagagi 3151-sonli, 2018 yil 7 maydagagi 3698-sonli, 2018 yil 5 iyuldagagi 3775-sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagagi 20-son, 2015 yil 25 avgustdagagi 246-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2019 yil 24 may kuni O‘zbekiston Milliy Universitetida Oliy ta’lim va ilmiytadkikot muassasa rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuvi bayoniga asosan O‘zbekistonning ko‘pgina oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning faoliyatini baholashning 110 ballik baholash parametrlari tizimi ishlab chiqilgan. Ular quyidagicha:

1. O‘quv-uslubiy faoliyat - (40% - 40 ball);
2. Ilmiy-tadqiqot ishlari - (30% - 30 ball);
3. Ma’naviy-marifiy ishlari (20% – 20 ball);
4. Innovatsiya va investitsion imtiyoz (oliy ta’lim muassasasi rivojiga qo‘sghan hissasi) (20% - 20 ball).

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, oliy ta’lim tizimida ham talabalarning yaxshi o‘qishi va bilim olishi bilan birgalikda ma’naviy-axloqiy tarbiyaga ham katta ahamiyat berilgan va ta’lim tizimida davlat standarti sifatida belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, bu tizim “Ustoz-shogird” munosabatlarda o‘z aksini topgan.

2021-yil 26-mart kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Ma’naviyat-ma’rifiy ishlari tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g“risida”gi qarorni imzoladi. Hujjatda aytishicha, amalga oshirilayotgan ishlarga qaramay, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotni yangilash jarayonlarida hamon qator tizimli muammolar saqlanib qolayotgani ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlar samaradorligini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Bu o‘z navbatida oliy ta’lim tizimida salohiyatli kadrlarni tayyorlash bilan birgalikda ularning mehnat bozorida o‘z kasbiga nisbatan halolligi va mas’uliyatini oshirishga qaratilgan. O‘zgarishlar va olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda yashirin iqtisodiyotning kamayishiga erishish, davlat siyosatining joy-joylarda aholining turmush hayotida ijobiy aks etishiga erishish hamda har bir inson qadrini ta’minalash ma’nana kamol topgan va yaxshi fazilatlar egasi bo‘lgan oliy ta’lim tizimida o‘qib kamol topgan kadrlarga bog‘liq ekanligini zamonning o‘zi ko‘rsatib kelmoqda.

Shuning uchun, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tubdan takomillashtirish tizimida quyidagi ustivor yo‘nalishlar belgilandi:

- “Milliy tiklanishdan milliy taraqqiyot sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni shakllantirish va uni umumxalq harakatiga aylantirish;
- oila, ta’lim muassasalari va mahallalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya uzluksizligi;
- tushuntirish va tarbiyaviy ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy etish;

- aholi o'rtasida internet tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, buzg'unchi 'oyalar va axborot tahdidlariga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash.

Shuningdek, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab, oliy ta'lim muassasalarida bakalavr yo'naliishlariga «Ma'naviyatshunoslik» fani, ixtisoslashgan oliy tadim muassasalarida magistratura yo'naliishida «Kasbiy ma'naviyat» va «PR-menedjer» yo'naliishlari tashkil etildi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 sentabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilan ta'minlash darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 563-sun qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Ixtisoslashtirilgan ta'lim 2021 yil 30 sentabrdagi 412-sun "Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoyishi asosida "O'quvchi – ota-onasiga va oliy ta'lim muassasasi" tamoyilini kuchaytirish topshirilgan. Zero, o'tmishda "Bir bolaga etti chorak ham ota, ham ona" degan naql bejiz aytilmagani milliy tariximizdan ma'lum. Har bir bola birovning farzandi. Agar u adashib qolsa, nafaqat ota-onasi, qo'ni-qo'shnilar, balki o'qituvchisi ham o'zini aybdor his qiladi. Mahalladagi bolalar va yoshlar ular bilan doimiy muloqotda bo'lishlari zarur bo'ladi, shunda ularning ongida bo'shliqlar bo'lmaydi. Qolaversa, o'zbek mahallalarida hasharlar, to'y-hashamlar, marosimlar o'tkazilishi, ularda yoshlarning faol ishtirok etishi yoshlar tarbiyasi va ma'naviyatini yuksaltirishga katta ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning ijtimoiylashuvi va hayotda axloqiy me'yorlarning qabul qilinishi, bu jarayonning ta'lim muassasalarida davom etishi, o'qituvchi va o'quvchilarining o'zaro hurmat va hurmatga asoslangan an'analarini o'qituvchi va o'quvchilar, ustalar shaxsida aks ettirish.

Shuningdek, 2022 yil 28-yanvarda qabul qilingan 60-sunli O'zbekistonni rivojlantirishning yangi taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo'naliishi ma'naviyat taraqqiyotini ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishni belgilagan. Bunda "O'zbekiston ma'rifatli jamiyat" tushunchasi mujassamlashtirilgan bo'lib, unda quyidagi maqsadlar ilgari surilgan:

- boy tarix, ilmiy-madaniy meros, milliy va diniy qadriyatlarni o'qitishga muvofiq tashkil etish;
- targ'ibot ishlarini tashkil etishning samarali, ijodiy va innovatsion usullarini ishlab chiqish va ularni o'z vaqtida amalga oshirish choralarini ko'rish;
- oilada, ta'lim muassasalarida va mahallalarda ma'naviy tarbiya uzluksizligini ta'minlash;
- milliy g'oya asosidagi mafkuraviy xurujlarga qarshi birgalikda kurasha olish, oila, maktab va jamiyat hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya uzluksizligini ta'minlash ko'nikmasini shakllantirish;

- “Yangi O‘zbekiston – uchinchi Uyg‘onish davri” g‘oyasining “Yoshlar – yangi O‘zbekiston buniyodkorlari” shiori ostida amalga oshirilishini ta’minlash;
- kitobxonlikni ommalashtirish;
- millatlararo munosabatlarni yaxshilash va xorijiy davlatlar bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantirish;
- hududlarda yangi madaniyat ob‘ektlarini qurish;
- tarix fanini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish. [3]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son qarori, Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston 2021 yil 9-sentabrda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 13-sentabrdagi 390-son qarori hamda “Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlikni tashkil etish to‘g‘risida”gi nizomda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida tyutorlik faoliyati tashkil etildi. Tyutorlik – oliy o‘quv yurtlarida talabalar bilan ishlashning yangi tizimidir. Nizomga ko‘ra tyutor - oliy ta’lim muassasasining tegishli malaka talablariga javob beradigan, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan xodimi hisoblanadi. [2]

Biriktirilgan guruh talabalarning o‘qishi, shuningdek, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni mehr-oqibat, adolatparvarlik, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to‘garaklar faoliyatiga jalg etish va tadbirlar o‘tkazishga ko‘maklashmoqda. Tyutor o‘z faoliyatida amaldagi qonunchilik, oliy ta’lim muassasasining ichki tartib qoidalari va ustaviga amal qiladi.

Manbalarda keltirilishicha, “tyutor” atamasi ingliz tilida “ustoz” (tyutor), o‘qituvchi, tarbiyachi, o‘qituvchi (rahbar) ma’nolarida qo‘llaniladi. Pedagogikada u “o‘quvchilarining bilimdon ustozi va o‘quv jarayoniga tushunarli yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, vazifalar qo‘yib, qo‘sishcha tushuntirishlar beradigan, o‘quv jarayonini osonlashtiruvchi o‘qituvchi” sifatida ham ta’riflanadi.

Shuningdek, tyutorlik XII-asr Yevropa universitetlari, jumladan Oksford va Kembrij universitetlari tarixi bilan chambarchas bog‘liqligi va Buyuk Britaniyada paydo bo‘lganligi ta’kidlanadi.

Bu vaqt ichida, o‘qishning birinchi yilida barcha talabalar tyutor maslahatlarida qatnashishlari shart edi va har hafta o‘zlarining ishlari haqida tyutorga hisobot berishlari kerak edi. Talabalar darsdan tashqari uchrashuv va suhbatlar o‘tkazib, o‘zlarini qiziqtirgan mavzularda ma’lumotlar oladilar. Oksford va Kembrij kabi oliy o‘quv yurtlarida tyutorlar bir yoki ikkita

talaba bilan ishlaydilar. O'qish va ta'tilda ularga rahbarlik qiladi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib boradi. [4], [5].

O'zbekiston oliv o'quv yurtlari tyutorlari 1-kurs talabalari bilan ishlashni tizimli ravishda tashkil etishi, mustaqillik va bilim darslari kunida, shuningdek, birinchi oliv ta'lim muassasasi bilan tanishishning dastlabki 10 kunida yoshlarda yaxshi taassurot qoldirishi lozim. Talabaning o'quv jarayonida o'quv, ilmiy va innovatsion faolligi tarbiyachining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishda yordam berishiga, o'qituvchi va psixolog sifatida harakat qilish qobiliyatiga bog'liq.

Bugungi global jamiyatda yoshlar va talabalar juda tez o'zgarib, kamol topmoqda. Turli madaniyat va qadriyatlarimizga zid bo'lgan g'oyalar, salbiy ijtimoiy madaniy ko'rinishlar, ekstremistik g'oyalar, psixologik va mafkuraviy tahdidlarga ongli yoki ongsiz ravishda qo'shilib qolishi ham ehtimoldan xoli emas. Mustaqil hayotga qadam qo'yan, yaxshi mutaxassis bo'lishga intilayotgan ko'plab talabalar oliv o'quv yurtlarida va o'qishni tugatgandan so'ng turli ijtimoiy muammolarga duch kelishadi. Hatto ular orasida huquqbazarliklar, jinoyatlar va boshqa salbiy illatlar mavjudligi, ularni bunday qilmishlariga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Binobarin, o'qituvchining faoliyati va pedagogik-psixologik tajribasi hamda ustoz-shogird an'analari ta'lim va tarbiyani uyg'unlashtirish, ularni uyg'unlashtirish, o'quvchilarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, olijanob fazilatlarni o'zlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Insonparvarlik g'oyalar, milliy mafkura milliy tarbiya va umuminsoniy qadriyatlarning namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Go'zal axloq, hayo, odob-axloq, sabr-toqat, iyomon-e'tiqod va go'zal fazilatlar tarbiyasidagi Sharq go'zalligi davlatimiz tomonidan ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan mutanosib siyosat samarasidir. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga katta e'tibor bergan atoqli pedagog Abdulla Avloniyning "Biz uchun tarbiya yo hayot-yo mamot, yo najot-halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan so'zlarida haqiqatni tushunamiz. Ta'limga e'tiborsizlik natijasida uning qanday yomon oqibatlarga olib kelishini hammamiz bilamiz.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ma'naviyat va ma'rifat, ta'lim va tarbiyaga asoslangan ilm-fan etuk inson va zamonaviy kadrlar kamolotida muhim ko'rsatkich bo'lib, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Buyuk sotsiolog Avgust Kont jamiyatning ijtimoiy qonuniyatlarini taklif qilar ekan, u «sotsial statika»da «tartib», «ijtimoiy dinamikada» «taraqqiyot»ni nazarda tutgan edi. U "axloq"ning ijtimoiy tartibni saqlash va ijobiy davlat qurishdagi rolini ham tan oldi. Jamiyat taraqqiyotining uchinchi bosqichi pozitivizmdagi axloqiy tarbiya olimlar elkasiga tushishini bashorat qilgan. Chunki jamiyat taraqqiyotida

pozitivizm davrida olimlar, ziyolilar, o'qituvchilar, mutaxassislar va umuman, intellektual salohiyatl shaxslarning ahamiyati ortib bormoqda. Shuningdek, insoniyat ongi va qalbiga ijobiy g'oyalarni qaror toptirish, ularni axloqiy tarbiyalashda ularning zimmasida katta mas'uliyat borligini ta'kidladi.

Demak, axloqiy tarbiya, ma'naviyat va ta'lim bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini rivojlantiruvchi, kelajakda ijtimoiy barqaror hayotni ta'minlovchi eng asosiy milliy va umuminsoniy qadriyatlardir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. 2020 yil 29 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi <https://yuz.uz/uz/news/prezidentning-oliy-majlisga-navbatdagi-murojaatnomasi>

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 13 sentyabrdagi 390-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomi, 3-bet

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.

4. Ковалева Т.М., Кобыща Е.И., Попова (Смолик) С.Ю., Теров А.А., Чередилина М.Ю. Профессия «тьютор». М.-2012. Тверь: «СФК-офис». –246 с

5. Дудчик С.В. Особенности организаций тьюторского сопровождения в начальной школе//Организация тьюторского сопровождения в образовательном учреждении: содержание, нормирование и стандартизация деятельности тьютора: Материалы Всероссийского научно-методического семинара.-М.: АПКиППРО, 2009.